VOLUME | 2 ISSUE | 7 SEPTEMBER | 2024

ТОМ | 2 ВЫПУСК | 7 СЕНТЯБРЬ | 2024

JILD | 2 SON | 7 SENTYABR | 2024

ISSN:2992-9199

Scientific journal of "Science technology & Digital finance":
30.09.2024.

This collection has published articles accepted into the scientific journal "Science technology & Digital finance" Part 7, 2024.

All articles within the Journal were assigned the unique DOI number and indexed in Zenodo, Open Aire, Google Scholar, Index Copernicus international scientific bases.

The materials of the journal can be used by professors, independent researchers, doctorates, undergraduates, students, teachers of lyceums and schools, scientific staff and all those interested in science.

Note! The authors are personally responsible for the veracity of the figures, reports, data in scientific articles included in the collection of journal Materials and the correctness of the quotes presented.

Научный журнал "Science Technology & Digital Finance":
30.09.2024.

В этом сборнике опубликованы статьи, принятые в научный журнал «Science Technology & Digital Finance» № 2 за 2024 год, Часть 7.

Ко всем статьям в журнале был прикреплен уникальный номер doi, проиндексированный в международных научных базах zenodo, Open Aire, Google Scholar, Index Copernicus.

Материалы журнала доступны преподавателям, независимым исследователям, докторантам, магистрантам, студентам, преподавателям средних школ и колледжей, научным сотрудникам, а также всем, кто интересуется наукой.

Примечание! Авторы несут персональную ответственность за достоверность цифр, отчетов, информации в научных статьях, включенных в сборник материалов журнала, и правильность цитирования.

«Science technology & Digital finance» ilmiy jurnali:
30.09.2024 yil.

Ushbu to‘plamda «Science technology & Digital finance» ilmiy jurnali 2024 yil 2-soni 7-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga DOI unikal raqami biriktirilib, Zenodo, Open Aire, Google Scholar, Index Copernicus xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

Jurnal materiallaridan professor-o‘qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktarantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o‘qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to‘plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

"Fast support and result" MCHJ

https://supportresult.uz/

SCIENCE TECHNOLOGY & DIGITAL FINANCE
VOLUME | 2, ISSUE | 7, SEPTEMBER, 2024

EDITOR-IN-CHIEF

Soy Marina Petrovna
Associate professor, PhD, Department of Economics and Tourism of the Jizzakh Branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

EDITORIAL BOARD

Bobanazarova Jamila Kholmurodovna
Professor, Doctor of Economic Sciences, Jizzakh Polytechnic Institute

Samadkulov Mukhammadjon Islom ugli
Head of the Department "General Sciences", Associate Professor of the Yangiyer branch of the Tashkent Institute of chemistry and technology

EDITORIAL SECRETARY

Saitov Sirojiddin Abduvalievich
Senior lecturer of the Department of Economics and tourism of the Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

PRINTMAKER

Kamolov Dostonbek Rustam ogli
Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

---

SCIENCE TECHNOLOGY & DIGITAL FINANCE
ТОМ | 2, ВЫПУСК | 7, СЕНТЯБРЬ, 2024 г.

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Цой Марина Петровна
Доцент, кандидат экономических наук, кафедра экономики и туризма Джизакского филиала Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

Бобоназарова Джамиля Холмуродовна
Профессор, доктор экономических наук, Джизакский политехнический институт

Самадкулов Мухаммаджон Ислом угли
Заведующий кафедрой "Общие науки", доцент Янгиеровского филиала Ташкентского химико-технологического института

СЕКРЕТАРЬ РЕДАКЦИИ

Саитов Сироджиддин Абдувалиевич
Старший преподаватель кафедры экономики и туризма Джизакского филиала Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

ПОДГОТОВКА К ПУБЛИКАЦИИ

Камолов Достонбек Рустам угли
Джизакского филиала Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

SCIENCE TECHNOLOGY & DIGITAL FINANCE
JILD | 2, NASHR/ 7, SENTYABR, 2024

BOSH MUHARRIR

Soy Marina Petrovna
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrasi dotsenti, i.f.n.

TAHRIRIYAT KENGASHI

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna
Jizzax Politexnika instituti professori, iqtisod fanlari doktori

Samadqulov Muxammadjon Islom o‘g‘li
"Umumkasbiy Fanlar" kafedrasi mudiri, Toshkent kimyo-texnologiya instituti Yangiyer filiali dotsenti

TAHRIRIYAT KOTIBI

Saitov Sirojiddin Abduvalievich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrasi katta o'qituvchisi

NASHRGA TAYYORLOVCHI

Kamolov Dostonbek Rustam o‘g‘li
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

Science technology & Digital finance
journal homepage: https://bestjournalup.com/index.php/stdf

O'ZBEKISTONDA XIZMATLAR BOZORINI SAMARALI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

Usmonova Vasila Botirovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrasi o'qituvchisi.

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqola O'zbekiston xizmatlar bozorini samarali shakllantirish imkoniyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada xizmatlar bozorining hozirgi holati, uning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni va raqobatbardoshligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi. O'zbekistonda xizmatlar sektori – turizm, moliya, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalardagi muammolar va imkoniyatlar yoritiladi. Shuningdek, xalqaro tajribalar, davlat siyosati va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati ko'rsatilib, xizmatlar bozorini rivojlantirish uchun takliflar beriladi. Ushbu maqola O'zbekistonning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va aholi farovonligini oshirishda xizmatlar bozorining rolini anglashda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar:

O'zbekiston, Xizmatlar bozori, Iqtisodiy rivojlanish, Raqobatbardoshlik, Turizm, Moliyaviy xizmatlar, Ta'lim, Sog'liqni saqlash, Davlat siyosati, Xususiy sector, Hamkorlik, Inson resurslari, Innovatsiya, Barqaror rivojlanish.

Email: vasilausmonova1416@gmail.com
©2024. Usmonova Vasila Botirovna
Published by Fast support and result LLC. This is an open access article under the CC BY-NC-ND license

Creative Commons Attribution-NonCommercial-NoDerivatives 4.0 International License

Kirish

Dunyo mamlakatlarida raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoiti barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi. Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan to'g'ri shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, ushbu sohaning rivojlanishi tashkiliy jihatdan optimal va xizmatlar bozori konyunkturasiga nisbatan egiluvchan bo'lsa, xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi. Xizmat ko'rsatish sohasida mehnat faoliyatini tashkil etishni to'g'ri yo'lga qo'yish milliy iqtisodiyot miqyosida bir qator ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni bartaraf etishga sabab bo'ladi.

Bu borada mamlakatimizda iqtisodiyotni rivojlantirishga, taraqqiy etishiga, iqtisodiy o'sishga erishishga qaratilgan qator chora tadbirlar, strategiyalar, jumladan 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.04.2021 y. N PF-6208 "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.04.2021 yildagi PQ-5087-son "Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari mazkur vazifalarni bajarishdagi tashkiliy-huquqiy asoslardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishda xizmat ko'rsatish jarayoni yuqori sifatga erishish va mehnat unumdorligini oshirish xizmat ko'rsatish sohasida xizmatlar sifati va samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan mehnat faoliyatini amalga oshirishning tashkiliy-iqtisodiy shakllari va vositalari tadqiqotiga bog'liqdir.

F.Kotler fikricha esa "Xizmat - bu bir tomon ikkinchi tomonga taklif etishi mumkin bo'lgan har qanday faoliyatdir; buning natijasida hech bir narsaga ega bo'linmaydi. Xizmat ko'rsatish moddiy mahsulot billan bog'liq bo'lishi mumkin".

Tovarlar va xizmatlar bozorining mazmuni, ularning turlari bo'yicha turli qarashlar mavjud. Xususan, L.I.Abalkin fikricha, "...tovarlar va xizmatlar bozorida hamkorlarni tanlash erkinligi, iqtisodiy raqobat, to'g'ri va teskari aloqalarning amalga oshishi kuzatiladi".

Tovar va xizmatlar bozorini bir-biridan farqlash ularning mazmunini ochib berish uchun ta'riflarni alohida o'rganishni taqozo qiladi. Ularning o'xshash tomonlari va ayrim o'ziga xos farqlari mavjud faoliyatini tashkil etib, uni shakllantiruvchi

tizim sifatida namoyon bo'ladi. Shu o'rinda xizmatlar ko'rsatishga berilgan ta'riflarning nazariy jihatlarini ko'rib o'tish maqsada muvofiq.

Olimlarning fikricha "Xizmatlar sohasining tabiati bo'lib, klassik turdagi erkin bozor, egiluvchanlik, kon'yunkturalik, bo'g'inlashtirilgan va mahalliy joylarga bog'langan kabi xususiyatlarga ega bozordir".

Hozirgi kunda mamlakatda amalga oshirilayotgan asosiy ustuvor vazifalardan biri–bozor munosabatlarini chuqurlashtirish orqali iqtisodiyotni rivojlantirish, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekiston iqtisodiyotiga salbiy ta'sirini mumkin qadar kamaytirishdan iboratdir. Iqtisodiyotni yuksaltirish muammolarini hal etishda xizmat ko'rsatish alohida o'rin tutadi. Aynan, tovarlar va xizmatlar bozori, ularning samarali faoliyat ko'rsatishi, bir tomondan iste'molchilar, ya'ni aholi turmush darajasi va sifatini oshirishning muhim vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan ushbu tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi sub'ektlarning doimiy, uzluksiz faoliyat yuritishi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib beradi. Aholining turli-tuman tovarlarga va xizmatlarga bo'lgan hamda tobora o'sib va kengayib borayotgan ehtiyojlarini imkon qadar to'laroq qondirish mamlakatimizda izchillik bilan olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Yurtimizda xizmatlarning yangi istiqbollari - turizm, bank, moliya, sug'urta, axborot-kommunikatsiya va boshqa xizmatlarni rivojlantirish hisobidan xizmatlar bozori takomillashib bormoqda. Oilalarni murakkab maishiy texnika, kompyuter va shaxsiy avtotransport bilan ta'minlashni keskin oshirishlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning tobora ko'payishiga imkon yaratdi. Shu bilan birga, O'zbekistan Respublikasining mazkur yo'nalishga taalluqli konun va kodekslari, Prezidentimizning turizmga oid kator farmonlari ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etildi.

Hozirgi iqtisodiy modernizatsiyalash jarayonlari amalga oshirilayotgan bir paytda iqtisodiyotning asosiy qismini xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari egallamoqda. Ularning ulushi yalpi ichki mahsulotda, iqtisodiyotda band bo'lganlarning tarkibida, davlat budjetiga to'lanadigan soliqlarda, yangi ish o'rinlarini yaratish kabi eng muhim masalalarda muttasil oshib bormoqda va kelajakda ham bu jarayonning davom etishi huquqiy-me'yoriy hujjatlar bilan mustahkamlanmoqda.

Bizning fikrimizcha bu borada yutuqlar bilan birga bir qator kamchiliklar ham uchraydi, masalan aholiga turli-tuman xizmatlar ko'rsatish qishloq joylarida yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yaxshilashdagi imkoniyatlaridan to'la foydalanilmayapti. Qishloq aholisining tovarlar bilan ta'minlanish darajasi ham shahar aholisiga

nisbatan ancha past. Bu esa kelajakda nafaqat shaharlarda, balki qishloq joylarida ham tovarlar va xizmatlar bozorini rivojlantirish samaradorligini oshirishni taqozo etadi.

Xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish ayniqsa, qishloq joylarida ko'rsatilayotgan xizmatlarning turini kengaytirish hamda sifatini yaxshilash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: yalpi ichki mahsulotni shakllantirishda xizmatlarning o'rni va ulushini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar tarkibini zamonaviy yuqori texnologik turlari hisobiga tubdan o'zgartirishga erishish, xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlarning faolligini kuchaytirish uchun shart-sharoitlar yaratish, oilaviy tadbirkorlik sub'ektlariga kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari orasidan yoshlarni jalb etish, aholi o'rtasida talab yuqori bo'lgan yangi istiqbolli konsalting, bank, moliya, sug'urta, lizing va baholash xizmati kabi turlarini jadal rivojlantirish.

Birinchi navbatda bizning fikrimizcha, xizmatlar bozorini samarali shakllantirish uchun yetarli shart-sharoit, tadbirkorlik, raqobat, iqtisodiy-huquqiy asoslar mavjud bo'lishi lozim. Ana shularga asoslanib, xizmat ko'rsatish tarmoqlarida xizmat va servisni hisobga olib, xizmatlar bozorini tashkil etishga quyidagi xususiyatlar xos deb hisoblaymiz.

Chizmada keltirilgan xususiyatlar bevosita xizmatlar bozoriga xos bo'lib, uning tovarlar bozoridan farq qiladigan tomonlari alohida shakldagi ko'rinishga ega bo'ladi.

Bu esa xizmatlar bozorining tovarlar bozoridan ancha farq qilishini belgilab beradi. Natijada, uning ijobiy tomonlarini ko'rsata olishga imkoniyat yaratadi. Xizmatlar bozorining tovarlar bozoridan farq qiladigan asosiy jihatlari 1-chizmada keltirilgan.



1-chizma. Xizmatlar bozori unsurlari chizmasi.

Xizmatlar savdosini takomillashtirishda alohida faoliyat sohasi va mustaqil sub'ekt bo'lib tovarlar va xizmatlar bozori maydonga chiqadi va tijorat bozorining amal qiladigan tizimiga asoslanadi.

Xizmatlar bozori rivojlanayotganligining asosiy sababi shundaki, respublikaning barcha hududlarida shart sharoitlarning yaratilganligi hamda ijtimoiy-iqtisodiy muhitning qulayligi hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish tasnifi xususida fikr yuritilganda, shuni alohida ta'kidlash joizki, xizmatlar sohasining rivojlanganlik darajasiga ko'ra turli mamlakat va mintaqalarda xizmatlar va tasniflagichlar son hamda tarkib jihatidan farq qiladi.

Xizmatlar bozorining farqlanadigan asosiy jihatlari quyidagilar:

1. Xizmatlarni joylashtirishning mavjudligi va osonligi;
2. Rivojlangan bozor talablariga javob berishi va alohida xizmatlarni
3. Iqtisodiy faoliyat va bashorat qilishning murakkabligi;
4. Zamonaviylashishi va xizmatlarga bo'lgan e'tiborning kengayishi;
5. Aholi guruhlarining faoliyatga tez moslashuvchanligi;
6. Yuqori foyda olish imkoniyati.

Xulosa

Hozirgi kunda iqtisodiyotni yuksaltirish muammolarini hal etishda tovarlar va xizmatlar bozori alohida o'rin tutadi. Aynan, tovarlar va xizmatlar bozori, ularning samarali faoliyat ko'rsatishi, bir tomondan iste'molchilar, ya'ni aholi turmush darajasi va sifatini oshirishning muhim vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan ushbu tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchi sub'ektlarning doimiy, uzluksiz faoliyat yuritishi, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib beradi. Aholining turli-tuman tovarlarga va xizmatlarga bo'lgan hamda tobora o'sib va kengayib borayotgan ehtiyojlarini imkon qadar to'laroq qondirish mamlakatimizda izchillik bilan olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor vazifasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. F. Kotler Marketing v tretem tыsyachileti 2001. 34-366
2. Abalkin L.I. Sfera uslug: novaya konsepsiya razvitiya/ M.: Ekonomika, 2009. – 55.
3. M.Q.Pardaev va boshqalar. Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Toshkent, IQTISOD-MOLIYA, 2008. – 20-23 b.
4. Usmonova V., Norqozoqov S. O'RMON YOG'OCHINI QAYTA ISHLASH //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – T. 1. – №. 2. – C. 156-162.
5. Azamatovna U. S., Botirovna U. V. THE IMPORTANCE OF THE ROLE OF INTERNATIONAL AND NATIONAL STANDARDS IN THE FIELD OF PRODUCTION AND SERVICES

//International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING. – 2024. – Т. 5. – №. 2. – С. 695-697.

6. Usmonova V., Ne'matov B. RANGLI METALLURGIYA //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – Т. 1. – №. 2. – С. 95-100.

7. Abdulhamidov A. A., Usmonova V. BANK TIZIMI VA PUL MOHIYATI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – Т. 1. – №. 2. – С. 11-15.

8. Usmonova V., Matrasulova A. OZBEKISTONDA KIMYO VA NEFT SANOATI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – Т. 1. – №. 2. – С. 82-88.

9. Usmonova V., Zoirov A. BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA ''YASHIL IQTISODIYOT''NING O 'RNI //International Journal of scientific and Applied Research. – 2024. – Т. 1. – №. 2. – С. 309-312.

10. Saloxitdinov S. H. F., Mirsaidov M. TA'LIM MAJMUINI BOSHQARISH VA MEHNAT BOZORI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH BORASIDAGI XALQARO TAJRIBALAR. – 2024.

11. Салохитдинов Ш. ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИ БИТИРУВЧИЛАРИНИНГ РАҚОБАТБАРДОШЛИГИ ВА СИФАТИНИ ОШИРИШГА ТАЪСИР КЎРСАТУВЧИ ОМИЛЛАР //Innovations in Science and Technologies. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 115-121.

12. Салохитдинов Ш. ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИ БЎЙИЧА ОЛИЙ ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ СИФАТИНИ БАҲОЛАШ ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 466-473.

13. Салохитдинов Ш. Ф., Ўғли Н. А. Д. ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ СИФАТИ ОМИЛЛАРИНИ БАҲОЛАШ //Science and innovation. – 2024. – Т. 3. – №. Special Issue 18. – С. 983-987.

14. Saloxitdinov S., Sardor I. O 'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O 'SISHNI TA'MINLASH YO 'NALISHLARI //Actual Problems in Higher Education in the Era of Globalization: International Scientific and Practical Conference. – 2024. – Т. 7. – С. 22-25.

15. Farxodovich S. S. INSON KAPITALINING RAQAMLI RIVOJLANISHINI BAHOLASH //Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). – 2024. – №. 6. – С. 36-45.

16. Салохитдинов Ш. Мамлакатимизда хизматлар соҳасининг ривожланиши ва таркибий ўзгаришлари таҳлили //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 93-97.

17. Бобаназарова Ж. Х., Салохитдинов Ш. Ф. Ў. ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА БОШҚАРИШ САМАРАДОРЛИГИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 5. – С. 303-306.

18. Ergasheva, N. (2024). FORMATION AND DISTRIBUTION OF POPULATION INCOME: https://doi.org/10.5281/zenodo.13879582. *Journal of Contemporary World Studies*, 2(7), 15-18. https://bestjournalup.com/index.php/jcws/article/view/450